


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**“MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI”  
fanidan kurs loyihasini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma**



**Toshkent2014**

Latipov V.B., Turapov A.T., Zaynutdinov N.Z., Axmedjanov Yu.A. Uslubiy qo'rsatma. – T.: ToshDTU, 2014.

“Mexanika – mashinasozlik” fakultetining barcha yo'nalishlarida (5320500 yo'nalishidan tashqari) bakalavrlarni tayyorlash o'quv dasturiga asosan tuzilgan.

Kurs loyihasi va vazifalarida mexanizmlarning ishlatilish sohasi va ishlash prinsipi bayon etilgan.

Qo'llanmada kurs loyihasining har bir qismida bajariladigan ishlar, ularning hajmi va bajarishga oid kerakli jadval va grafiklar hamda loyihani himoyalashga bag'ishlangan nazorat savollari keltirilgan.

ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashi qarori asosida bosmadan chiqarishga ruhsat etildi.

Taqrizchilar:

t.f.d., prof. Karimov R.I. (ToshDTU);

t.f.n., dots. Abduvaliev U.A. (ToshDTU);

t.f.d., prof. Alimuhamedov Sh.P. (TAYI).

©Toshkent davlat texnika universiteti, 2014.

# **MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASIDAN KURS LOYIHASINING HAJMI, MAZMUNI VA BAJARISH TARTIBI**

## **Kurs loyihasining maqsadi va vazifalari**

Proyekt (lotinchadan projectus –oldiga tashlangan) – qandaydir qurilma yoki buyumni hosil qilishda turli ko'rinisdagi (grafik-chizmalar, sxemalar, diagramma va grafiklar; matematik – tenglamalar va hisobotlar; muhandislik termik va tushunmalar – tekst, tushuntirish xati) hujjatlar to'plami.

Kurs loyihasining asosiy vazifasi-muayyan mashina va mexanizmlarning hamda turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan asboblarni umumiy loyihalash va tekshirish usullarini qo'llash ko'nikmalarini o'rgatish.

Talaba konstruktorlik hujjatlarini tayyorlashning turli bosqichlarida hisob - kitoblarni kompyuterda yechish, muhandislik masalalarini yechishda analitik va grafik usullarini qo'llab yechishda o'rganishi kerak.

Kurs loyihasi talabalarga olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishga hamda bu bilimlarni ma'lum muhandislik masalalarini umumlashtirgan holda yechishga yordam beradi.

Kurs loyihasi A1 formatdagi 3 ta varaqda bajariladi va xisob-kitoblari A4 formatdagi 30-40 varaqdan iborat bo'lgan tushuntirish xatidan iborat.

Kurs loyihasini bajarishga kirishganda talaba mexanizmlarni loihalash, ularni strukturaviy, kinematik va dinamik jihatdan umumlashtirilgan masalalarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu ko'rsatma talabalarga ma'ruzalarda izoh qilingan bilimlarni o'zlashtirgan holda mashina va mexanizmlar nazariyasidan kurs loyihasini mustaqil bajarishga yordam beradi.

## **I.KURS LOYIHASINING MAZMUNI VA UNI BAJARISH TARTIBI**

Kurs loyihasining mazmuni kursning asosiy bo'limlarini o'z ichiga oladi:

- 1 -varaq. Mexanizmning kinematik va kinostatik analizi;**
- 2- varaq. Tishli mexanizmni loyihalash (sintez);**

### 3 -varaқ. Kulachokli mexanizmni loyihalash (sintez)

#### 1. Mexanizmning kinematik va kinetostatik analizi.

##### 1.1 Mexanizmning strukturaviy va kinematik analizi

###### Bajarish tartibi:

- uzunlik mashtabi  $\mu_l$  ni tanlab, krivoshipni 12 holati bo'yicha boshqa zvenolarning holatlari quriladi, zvenolarning og'irlik markazlari trayektoriyalari chiziladi. Vazifada ko'rsatilgan krivoshipning  $\varphi_1$  burchagi bo'yicha zvenolarning tasviri qalin chiziqda chiziladi;
- mexanizmning qurilgan holatlari bo'yicha 12 (8) holatlari uchun tezlik masshtabi  $\mu_v$  va 4 holat uchun tezlanish masshtabi  $\mu_a$  da zveno nuqtalarining tezlik va tezlanish rejalari quriladi. Zveno nuqtalarining haqiqiy chiziqli hamda aylanma (murakkab) harakat qiladigan zvenolarning burchak tezlik va tezlanishlari aniqlanadi;
- berilgan  $\varphi_1$  burchagi bo'yicha mexanizm holati quriladi, Assur guruhlariga bo'linadi, tashqi va inersiya kuchlari vektorlari qo'yiladi;
- kinematik juftlardagi reaksiya (aks ta'sir) kuchlari analitik usulda yoki kuch re'jalarini qurish yordamida aniqlanadi;
- yetakchi zvenoga keltirilgan muvozanatlovchi kuch  $P_m$  va momentni  $M_m$  aniqlanadi;
- N.E.Jukovskiy "qattiq richagi" yordamida muvozanatlovchi kuch  $P_m$  va uning moment  $M_m$  aniqlanib, ikki usulda topilgan qiymatlarining absolut hatoligi aniqlanadi.

###### 1) Kurs loyihasining tushuntirish xati mazmuni (mexanizmning strukturaviy va kinematik analizi):

- a) A4 formatda richagli mexanizmning strukturaviy sxemasi chizilib, umumiy zvenolar soni va shu jumladan harakatlanuvchi zvenolar soni, ularning harakat turi va nomlanishi, kinematik juftlarning umumiy soni va ularning sinflari aniqlanadi;
- b) mexanizmning erkinlik darajasi aniqlanadi;
- c) mexanizmning sinfi aniqlanib, uning strukturaviy tenglamasi yoziladi;

- d) vazifa va variant bo'yicha dastlabki ma'lumotlar;
- e) mexanizm zvenolarining geometrik hisobi va kinematik sxemaning masshtabini tanlash  $\mu_e$ [m/mm];
- f) mexanizmholatlarini qurish;
- g) mexanizmzveno nuqtalarining chiziqli tezlik hamda zvenolarning burchak tezliklarini polyar rejalar asosida aniqlash:
  - tezlik masshtabini aniqlash  $\mu_v$ [m/smm];
  - tezlik vektor tenglamalar tuziladi;
  - mexanizmning 12 holatiga (8 holatiga) zveno nuqtalarining chiziqli tezlik hamda burchak tezlik qiymatlari jadvali
- h) mexanizmzveno nuqtalarining chiziqli tezlanish (4-6 holat) hamda zvenolarning burchak tezlanishlarini polyar rejalar asosida aniqlash:
  - tezlanish masshtabini aniqlash  $\mu_a$ [m/s<sup>2</sup>mm];
  - tezlanish vektor tenglamalar va ularga izoh;
  - mexanizmning 6 (4) holatiga zveno nuqtalarining chiziqli tezlanish hamda burchak tezlanish qiymatlari jadvali.

## 1.2. Mexanizmningkinetostanikanalizi.

Dastlabki ma'lumotlar:

- mexanizmningbir holatdagi sxemasi;
- foydali qarshilik kuchlarining mexanik [arakteristikasi (indikator diagrammasi);
- zveno massalari;
- zvenolarning inersiya momentlari.

### Bajarish tartibi:

- mexanizmning berilgan holatiga foydali qarshilik yoki harakatlanuvchi kuchlarning qiymatlarini aniqlash;
- mexanizmning berilgan holatiga zvenolarga ta'sir etayotgan inersiya kuchlarini aniqlash;
- mexanizm Assur guruhlariga ajratiladi;
- har Assur guruhida tashqi va inersiya kuchlari vektor yo'nalishlari qo'yiladi;
- kinematik juftlarda noma'lum ireaksiya kuchlari aniqlanadi. Kuch rejasi  $\mu_p$ [N/mm] masshtabida chizilib, Assur guruhi yonida joylashtiriladi;
- mexanizmning boshlangich zvenosi chizilib, kinematik juftdagi reaksiya kuchi va muvozanatlovchi kuch  $P_m$  qo'yiladi;

– muvozanatlovchi kuch  $P_m$  ni vektor muvozanat tenglamasini tuzib aniqlanadi;

– boshlangich zveno ustunidagi ireaksiya kuchi aniqlanadi;

– N.E.Jukovskiy usulida muvozanatlovchi kuch  $P_m$  aniqlanadi.

## 2) Kurs loyihasining tushuntirish xati mazmuni (mexanizmning kinetostatik analizi):

a) variant bo'yich dastlabki ma'lumotlar;

b) inersiya kuchi va momentini aniqlash;

c) kinematik juftlardagi ireaksiya kuchlarini aniqlash:

– vektor muvozanat tenglamasi tuziladi;

– kuch ko'pburchagini masshtabi tanlanadi  $\mu_p$  [N/mm];

– kuch ko'pburchagidan noma'lum ireaksiya kuchlari aniqlanadi.

d) mexanizmning boshlangich zvenosidagi muvozanatlovchi kuch  $P_m$  va ustunidagi ireaksiya kuchi aniqlanadi:

– muvozanatlovchi kuch  $P_m$  ni aniqlashga moment muvozanat tenglamasi;

– muvozanatlovchi kuch  $P_m$  ni hisoblash;

– kuch ko'pburchagini qurish uchun vektor muvozanat tenglamasini tuzish;

– kuch ko'pburchagagi masshtabi  $\mu_p$  [N/mm] ni aniqlash;

– kuch rejasidan reaksiya kuchining qiymati aniqlanadi.

e) N.YE.Jukovskiy usulida muvozanatlovchi kuch  $P_m$  aniqlash:

– burilgan rezlik rajasida mos nuqtalarga qo'yilgan kuchlardan moment muvozanat tenglamasi tuziladi va muvozanatlovchi kuch  $P_m$  aniqlanadi;

– muvozanatlovchi kuchni hisoblash.

f) N.E.Jukovskiy usulida va kinetostatika usullarida aniqlangan muvozanatlovchi kuchlarni hatoligini topish.

## 2. Tishli mexanizmning sintezi (kurs loyihasining 2-varag'i)

Dastlabki ma'lumotlar:

– tishli g'ildiraklarning tishlar soni;

– tishli g'ildiraklarning modullari;

– planetar reduktorning uzatish soni.

### **Bajarish tartibi:**

a) tishli g'ildiraklarning berilgan modul  $m$  va tishlar sonlari  $Z_1$  va  $Z_2$ lar bo'yicha geometrik parametrlari aniqlanadi;

b) uzunlik masshtabi  $\mu_l$  ni tanlab, varaqning chap yarmida evolventali ilashmasi chiziladi. Bunda har bir tishli g'ildirakning uchtdan tishi chizilib, ilashmadagi tishlarning aktiv qismi ko'rsatiladi. Chizmada ilashish yoyi aniqlanadi, bunda nazariy va amaliy usullarda aniqlangan qoplanish koefitsientlarining absolut xatoligi 10%dan oshmasligi kerak;

c) planetar mexanizmning berilgan sxemasi bo'yicha tishli g'ildiraklarning tishlar soni aniqlanadi va uch shart bo'yicha tekshiriladi;

d) aniqlangan tishlar soni va berilgan modul  $m_{pl}$  bo'yicha bo'luvchi diametr qiymatlari aniqlanadi. Uzunlik masshtabi  $\mu_l$  ni tanlab, planetar mexanizmning ikki proyeksiyasi chiziladi.

### 3) Kurs loyihasining tushuntirish xati mazmuni (tishli mexanizmlar sintezi):

a) variant bo'yich dastlabki ma'lumotlar;

b) tishli g'ildiraklarning geometrik parametrlarini aniqlash;

c) tishlarni profillash;

d) tishlig'ildirakning elementlari (tushunchalar);

e) qoplanish koefitsientini aniqlash (analitik va grafik);

f) planetar mexanizmning sxemasini tanlash va uni asoslash;

g) planetar mexanizmning tishlar sonini aniqlash va uch shart bo'yicha tekshirish;

h) planetar mexanizm tishlarining geometrik parametrlarini va masshtabini  $\mu_e$  aniqlash.

### **3. Kulachokli mexanizmni loyihalash(kurs loyihasining 3-varag'i).**

Dastlabki ma'lumotlar:

- kulachokli mexanizmning kinematik sxemasi;
- turtkichning maksimal yo'li yoki koromislarning chayqalish burchagi;
- ruhsat etilgan bosim burchagi;
- kulachokning faza burchaklari.

### **Bajarish tartibi:**

a) berilgan geometrik parametrlar hamda turtkichning (koromislarning) harakat qonuni bo'yicha tezlanish analog diagrammasi qurilsin.

$$\frac{d^2s}{d\varphi^2} = \frac{d^2s}{d\varphi^2}(\varphi_k) \left( \frac{d^2\beta}{d\varphi^2} = \frac{d^2\beta}{d\varphi^2}(\varphi_k) \right);$$

b) grafik integrallash usulini qo'llab, tezlik analog diagrammasi  $\frac{ds}{d\varphi} = \frac{ds}{d\varphi}(\varphi_k) \left( \frac{d\beta}{d\varphi} = \frac{d\beta}{d\varphi}(\varphi_k) \right)$  va turtkichning (koromislarning) harakat diagrammasi  $s = s(\varphi_k)$  ( $\beta = \beta(\varphi_k)$ ) qurilsin;

c)  $s = s\left(\frac{ds}{d\varphi}\right) \left(\beta = \beta\left(\frac{d\beta}{d\varphi}\right)\right)$  nomogrammasini qurib, kulachokning minimal radiusi  $r_{\min}$  aniqlansin.

4) Kurs loyihasining tushuntirish xati mazmuni (kulachokli mexanizmning sintezi):

a) variant bo'yich dastlabki ma'lumotlar;

b) siljish masshtabini  $\mu_s$  [m/mm] yoki  $\mu_\beta$  [gr/mm], tezlik analogi  $\mu \frac{ds}{d\varphi_1}$  [m/mm] yoki  $\mu \frac{d\beta}{d\varphi_1}$  [rad/mm] va turtkichning tezlanishi  $\mu \frac{d^2s}{d\varphi^2}$  [m/mm] yoki koromislarning burchak tezlanishi  $\mu \frac{d^2\beta}{d\varphi^2}$  [rad/mm] hisoblash;

c) kulachok profilining minimal radiusining chizma va haqiqiy olchaminianiqlash;

d) kulachok profilini qurish.

## II. KURS LOYIHASINI RASMIYLASHTIRISHGA OID TALABLAR

1. Loyihaning grafik qismi DS 2.301-68, DS 2.302-68 va DS 2.303-68 talablariga muvofiq A1 formatdagi 3 ta varaqda bajariladi.

2. Kinematik sxema, tezlik va tezlanishlar rejalariga masshtab koeffitsientlari qo'yiladi. Mexanizm zvenolarining holatlari qurilgan sxemada krivoshipning  $\varphi_1$  burchagi berilgan holati qalin chiziqda chiziladi. Ushbu holatda aylanma va murakkab harakat qiladigan zvenolarning burchak tezlik va tezlanish yo'nalishlari qo'yiladi.

3. Loyihaning 1- varag'ida ko'riladigan har bir kuch rejasiga uning muvozanat vektor tenglamalari va masshtab koeffitsiyentlari yoziladi.



Kinematik juftlardagi reaksiya kuchlari (masalan  $R_{12}$ - birinchi zvenodan ikkinchi zvenoga aks ta'sir kuchi) yo'nalishlari belgilanadi. Agar analitik usulda topilgan reaksiya kuchi manfiy ishora bilan chiqsa, sxemada uning yo'nalishi o'zgartirilmaydi.

Loyihaning 2-varag'ida chizilgan evolventali tishli ilashma va planetar mexanizmlarning uzunlik masshtab koeffitsiyentlari qo'yiladi.

Loyihaning 4-varag'ida masshtab koeffitsiyentlar grafiklarning chap tomonida yoziladi.

4. Tushuntirish xatini rasmiylashtirishga oid talablar.

Tushuntirish xati A4 formatdagi varaqda yoziladi. Tartib bilan qo'yib chiqilgan raqamlar tizmasi varaqning past qismida o'rtaga qo'yiladi. Tushuntirish xati DS 7.1-86 ga asoslanib tuzilgan ishlatilgan adabiyot va munda riya bilan yakunlanadi. Adabiyotlarni belgilanishi to'g'ri burchakli kavusda (masalan [1]), tenglamalarni belgilanishi tenglamaning o'ng tomoniga kavusda ko'rsatiladi (masalan (1.1)). Tenglamaning chiqqan natijasida o'lchov birligi qo'yilishi shart. Tezlik va tezlanishlarni aniqlashda vektor tenglamalar yozilib, izoh beriladi. Haqiqiy qiymatlarini aniqlash bir vaziyat uchun (masalan 1-vaziyat uchun) to'liq ko'rsatiladi, qolgan vaziyatlarning qiymatlari jadvalda beriladi.

### **III. KURS LOYIHASINI HIMOYALASH**

1. Kurs loyihasi bajarilgandan so'ng, loyiha rahbari talabaga kerak bo'lgan holda, savollar beradi va ximoyaga tayyorgarligini aniqlaydi, titul varag'iga "Himoyaga" so'zini va sanasini yozib, imzo qo'yadi.

Rahbar qo'l qo'ygan kurs loyihasini taqdim etadi. Himoya 2-3 komissiya a'zolari, rahbar va talabalar ishtirokida o'tadi. Ximoyada kafedraning boshqa professor-o'qituvchilari hamda dekanat a'zolari qatnashishi mumkin.

Himoyada talaba 5-10 daqiqa loyihaning mazmunini, loyihalangan mexanizmlarning ishlatish sohasi, ularning ishlash prinsipi, har bir varaqda bajarilgan ishning maqsadi va hisoblash xususiyatini bayon etadi, hamda komissiya a'zolari yoki boshqa qatnashchilarning mavzuga oid savollariga

javob beradi. Shuning uchun talaba himoyaga tayyorgarlik ko'rganda, nazariyani qaytarishi lozim.

Kurs loyihasining himoyasi 100 ballik reyting baholash tizimi bo'yich talabanning himoyasi va loyihaning sifati asosida baholanadi.

## 2. Kurs loyihasini himoyalashdagi nazorat savollar

**1-bo'lim.** Mexanizmning strukturaviy va kinematiktahlili.

Ta'riflash: mashina, mexanizm, zveno, kinematik juft (oliy va quyi), kinematik zanjir, Assur guruhleri, ularning sinflanishi, masshtablar (uzunlik, tezlik, tezlanish) va h.k.

Mexanizm sxemasini Assur guruhlariga bo'lish qoidasi. Kinematik tahlilni bajarishdan maqsad. Ularning turlari, afzalligi va kamchiligi.

Tezlik yoki tezlanish vektor tenglamalarni tuzish qoidasi.

1.Zvenoga nuqtasi uchun tuziladigan tezlik(tezlanish) vektor tenglamalar soni nimaga bog'liq?

2.Zvenononon burchak tezlik va tezlanishlari qiymatlari hamda ularning yo'nalishlari qanday aniqlanadi?

3.Qaysi holda zveno tezlashib (sekinlashib) harakat qiladi?

4.Tashqi va inersiya kuchlarning vektor yo'nalishlari qanday aniqlanadi?

5.Dalamber prinsipini izohlab bering.

6.Mexanizm zvenolariga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

7.Mexanizmning ushbu holatidagi harakatlanuvchi yoki qarshilik kuch qiymatlari qanday aniqlanadi?

8.Kuch rejasini qurish ketma-ketligini aytib bering.

9.Kuch rejasini qurganda vektor muvozanat tenglamani tuzish qoidasini aytib bering.

10.Muvozanatlovchi kuchning fizik mohiyati.

11.N.E.Jukovskiy "qattiq richagi" yordamida muvozanatlovchi kuch qanday aniqlanadi?

**2-bo'lim.** Tishli mexanizmlar sintezi

1. Ilashmaning asosiy teoremasi.

2. Uzatish nisbati deb nimani tushunasiz?Uzatish nisbati va uzatish soni orasidagi farq.

3. Ilashish chizig'i nima va u qanday hosil bo'ladi?

4. Ilashish moduli va tishlar qadami qanday aniqlanadi?

5. Qoplanish koeffitsienti qanday aniqlanadi va uning qiymati nima haqida dalolat beradi?Qoplanish koeffitsientining minimal qiymati.

6. Radial masofa deb nimaga aytiladi?

7. Tishli g'ildiraklarning ilashish turlarini aytib bering. Sizning ilash-mangiz qaysi turga kiradi?

8. Episikliuk mexanizmlar deb nimani tushunasiz?

9. Planetar mexanizmni differensial mexanizmga aylantirish mumkinmi?

10. Planetar mexanizmlarning asosiy turlarini aytib bering. Loyihalashga berilgan planetar mexanizm qaysi turga kiradi?

11. Planetar mexanizmni loyixalashdan maqsad nima?

12. Aniqlangan tishlar soni qanday shartlarga javob berishi kerak?

### **3-bo'im.** Kulachokli mexanizm sintezi

1. Kulachokli mexanizmlar turlari, ularning afzalligi va kamchiligi.

2. Ish faza burchagi deb nimani tushunasiz?

3. Kulachokli mexanizmnda bosim burchagi nima? Mexanizmning ishlashiga u qanday ta'sir ko'rsatadi?

4. Kulachokning nazariy va amaliy profillari deb nimani tushunasiz? Qaysi turdagi kulachokli mexanizmlarda ikki profil ustma-ust tushadi?

5. Kulachok deb nimani tushunasiz?


6. Masshtab koeffitsiyentlari qaysi ketma-ketlikda aniqlanadi?

7. Turtkichning haqiqiy tezlik yoki tezlanishi qanday aniqlanadi?

8. Kulachokning profili nimaga bog'liq?

**“TEBRANUVCHI KONVEYER MEXANIZM  
VA QISMLARINI LOYIHALASH”  
mavzusida kurs loyihasini bajarishga misol**

Richagli mexanizmga (1.1a-rasm) harakat elektrodvigateldan tashqi tishli ilashma va planetar reduktor(1.1b-rasm) orqali keladi. Kulachokli mexanizm sxemasi va koromislarning harakat qonuni 1.1-c,d-rasmlarda ko'rsatilgan.



1.1 - rasm

a) richagli mexanizm; b) tishli mexanizm; c) kulachokli mexanizm;  
d) koromislarning harakat qonuni

Loyihalash uchun quydagi parametrlar berilgan:


1) zvenolarning uzunliklari va geometrik parametrlari:

- $l_{OA} = 0,12 \text{ m}$
- $l_{AB} = 0,46 \text{ m}$
- $l_{BC} = 0,39 \text{ m}$
- $l_{DB} = 1,5 \text{ m}$
- $X = 0,33 \text{ m}$
- $Y = 0,06 \text{ m}$

2) elektrodvigatelning aylanishlar sonin = 750 ay/min

- 3) krivoshipning aylanishlar soni  $n_1 = 70 \text{ ob/min}$
- 4) zvenolarning massalari:
  - $m_2 = 21 \text{ kg}$
  - $m_3 = 25 \text{ kg}$
  - $m_4 = 85 \text{ kg}$
  - $m_5 = 500 \text{ kg}$
- 5) inersiya momentlari:
  - $J_{01} = Ls_3 = 1,1 \text{ kgm}^2$
  - $J_{s_2} = 0,5 \text{ kgm}^2$
  - $J_{s_4} = 36 \text{ kgm}^2$
  - $J_{dv} = 0,03 \text{ kgm}^2$
- 6) qarshilik kuchi:
  - $P_{\text{chap}} = 165 \text{ kH}$
  - $P_{\text{ong}} = 460 \text{ kH}$
- 7) kuchga hisoblash uchun krivoship burchagi  $\varphi = 45^\circ$
- 8) tashqi ilashmaning modulim  $= 5 \text{ mm}$
- 9) tashqi ilashmadagi tishlar soni:
  - $Z_a = 17$
  - $Z_b = 19$
- 10) planetar mexanizmning moduli  $m_{pl} = 5 \text{ mm}$
- 11) koromislarning uzunligi  $l = 105 \text{ mm}$
- 12) koromislarning maksimal chayqalish burchagi  $\beta = 25^\circ$
- 13) faza burchaklari:
  - ko'tarilish va qaytish fazalari  $\varphi_k = \varphi_q = 70^\circ$
  - uzoqda turish burchagi  $\varphi_{ut} = 10^\circ$
- 14) ruxsat etilgan bosim burchagi  $\alpha_{ruh} = 45^\circ$

Mexanizmning strukturaviy tahlili.



1.2-rasm. Mexanizmning kinematik sxemasi

Bunday 6 zvenoli mexanizm 5 ta harakatga ega zvenolardan iborat:

- 1-krivoship-aylanma harakat qiladi;
- 2-shatun-murakkab harakat qiladi;
- 3-koromislo-aylanma-chayqalma harakat qiladi;
- 4-shatun;
- 5-porshen-ilgarilanma-qaytma harakat qiladi.

Kinematik juftlar soni-6 ta (O,A,B<sub>1</sub>,B<sub>2</sub>,C,D<sub>1</sub>,D<sub>2</sub>) va ular 5-sinflli kinematik juftlar.

Mexanizmning erkinlik darajasi P.L.Chebishev formulasi yordamida topiladi.

$$W = 3n - 2p_5 - p_4$$

n – qo'zg'aluvchan zvenolar soni;

2p<sub>5</sub> – 5-sinf kinematik juftlar soni. p<sub>5</sub> – 7 ta


p<sub>4</sub> – 4-sinf kinematik juftlar soni. p<sub>4</sub> – 0

$$W = 3 \cdot 5 - 2 \cdot 7 - 0 = 1$$


W=1, demak mexanizmda bitta etakchi zveno bor. 1-zveno-etakchi zvenodir.

Mexanizmning sinfini aniqlash uchun, uning sxemasi Assur guruhlariga bo'linadi. Assur guruhining eng katta sinfi mexanizm sinfini belgilaydi.

$$W = 3n - 2p_5 = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 3 = 0$$



1.3-rasm. 4 va 5-zvenolardan tashkil topgan II-Assur guruhi sxemasi  
Bu Assur guruhining sinfi-2 sinf uning belgilanishi quyidagicha bo'ladi:  
II(4,5)




1.4-rasm. 2 va 3-zvenolardan tashkil topgan II-Assur guruhi sxemasi

$n = 2$  – 2-va 3-zvenolar

$p_5 = 3$  – A, B<sub>2</sub> va C- 5-sinflli kinematik juftlar

$$W = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 3 = 0$$

Bu Assur guruhi ham 2sinf. Belgilanishi - II(2,3)



1.5-rasm. Ustun va 1-zvenolardan tashkil topgan I-Assur guruhi sxemasi

Uning erkinlik darajasi:

$$W = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 1 = 1$$

Assur guruhining sinfi - I sinf (shartli ravishda). Belgilanishi - I(0,1)

Assur guruhlarining eng kata sinfli - II sinf, demak mexanizm ham ikkinchi guruhli mexanizm bo'ladi. Uning strukturaviy formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$I(0,1) \rightarrow II(2,3) \rightarrow II(4,5)$$

### Mexanizmning kinematik tahlili

Mexanizmning kinematik tahlilidan maqsad mexanizm zvenolarining holatlariga bog'lik holda kinematik parametrlarini o'zgarishini aniqlash hamda zvenolarning og'irlik trayektoriyalarini qurishdan iborat.

Mexanizmning kinematik tahlilida uning sxemasi uzunlik masshtabi  $\mu_l$  da chizilib, ayrim zvenolarning og'irlik markaz trayektoriyalari chiziladi, zveno nuqtalarining chiziqli tezlik va tezlanishlari hamda zvenolarning burchak tezlik va tezlanishlari aniqlanadi.

Kinematik tahlilni bajarish bo'yicha quyidagilar berilgan:



zvenolarning uzunliklari va geometrik parametrlari:

- $l_{OA} = 0,12 \text{ m}$
- $l_{AB} = 0,46 \text{ m}$
- $l_{BC} = 0,39 \text{ m}$
- $l_{DB} = 1,5 \text{ m}$
- $X = 0,33 \text{ m}$
- $Y = 0,06 \text{ m}$

Krivoship aylanishlar soni  $n_1 = 70 \text{ ay/min}$

### Mexanizmning kinematik sxemasini chizish.

Buning uchun mexanizmning uzunlik masshtabini tanlaymiz.

$$\mu_l = \frac{l_{OA}}{\bar{l}_{OA}} = \frac{0.12}{20} = 0.006 \frac{m}{mm}$$

Ya'ni, haqiqiy uzunligi  $l_{O,A} = 0,12 \text{ m}$  bo'lgan yetakchi zveno (1) ni sxemada 20mm li kesmaga almashtirib chizamiz.

Yetakchi zvenoning bir marta to'la aylanishida 12 vaziyatni chizamiz (yechilayotgan masalada 8 bo'lakka bo'lingan). Buning uchun  $O_1$  markazdan  $O_1A = 20 \text{ mm}$  radius bilan A nuqtasining trayektoriyasini bildiruvchi aylana chizamiz. Bu aylananing teng 12 qismga bo'lamiz va krivoshipning har  $30^\circ$  da burilgan vaziyatini olamiz.

Zvenolarning hamda qurish uchun zarur bo'lgan geometrik o'lchamlarning chizma uzunliklari aniqlanadi. Bunda zvenolarning chizmadagi uzunliklari quyidagilarga teng bo'ladi:

$$\bar{l}_{AB} = \frac{\overline{AB}}{\mu_l} = \frac{l_{AB}}{0,012} = 38,33 \text{ mm}$$

$$\overline{BC} = \frac{l_{BC}}{\mu_l} = \frac{0,39}{0,012} = 32,5 \text{ mm}$$

$$\overline{BD} = \frac{l_{BD}}{\mu_l} = \frac{1,5}{0,012} = 125 \text{ mm}; \quad \bar{X} = 27,5 \text{ mm}; \quad \bar{Y} = 5 \text{ mm}$$

Mexanizmning zvenolar holatlari sxemasini quyidagi tartibda quriladi:

1) krivoshipning aylanish markazi, ya'ni O nuqta tanlanadi va krivoshipning chizma uzunligiga teng radiusda ( $OA = 20 \text{ mm}$ ) aylana chiziladi;

2)  $\bar{x}$  va  $\bar{y}$  masofalardan foydalanib, C ustunning vaziyati hamda polzunning harakat yo'li chiziladi. C ustun koromislo CB ning aylanish markazi hisoblanadi;

3) C ustundan  $\overline{CB} = 32,5 \text{ mm}$  radiusga yoy chiziladi. Barcha B nuqtalar shu yoyda joylashadi;

4) krivoship OA va shatun AB bir chiziqda yotgan birinchi holatini topamiz. Buning uchun  $R_1 = OA + AB = 20 + 38,33 = 58,33 \text{ mm}$  radiusda O ustundan yoy o'tkazamiz va C ustundan o'tkazilgan yoy bilan kesishishda B'' nuqtasini belgilaymiz. Uni O aylanish markazi bilan tutashtirib, OA radiusli aylana bilan kesishgan joyini A'' deb belgilaymiz. B'' nuqtasini C ustun (aylanish markazi) bilan tutashtiramiz hamda B'' nuqtasidan  $BD = 125 \text{ mm}$  teng chiziqni polzunning yurish yo'liga qo'yamiz. Natijada D'' nuqtasini hosil qilamiz;

5) OA'' kesmasini o'qning bir tomoni deb qabul qilib, unga perpendikulyar chiziq o'tkazib, ikkinchi tomonini o'tkazamiz;

6) krivoship OA va shatun AB bir chiziqda yotgan ikkinchi holatini topamiz. Buning uchun  $R_1 = AB - OA = 38,33 - 20 = 18,33 \text{ mm}$  radiusda O nuqtadan yoy o'tkazamiz va C nuqtadan o'tkazilgan yoy bilan kesishishda B' nuqtasini belgilaymiz. Uni O aylanish markazidan o'tkazib, OA radiusdagi aylana bilan kesishgan joyini A' deb belgilaymiz. B' nuqtasini C ustun (aylanish markazi) bilan tutashtiramiz hamda B' nuqtasidan  $BD = 125 \text{ mm}$  teng chiziqni polzunning yurish yo'liga qo'yamiz. Natijada D' nuqtasini hosil qilamiz. Qolgan D nuqtalar D' va D'' nuqtalar oralig'ida, B nuqtalar esa B' va B'' oralig'ida yotadi;

7) A' nuqtasini  $A_0$  deb qabul qilib, ushbu nuqtadan har  $30^0$  (bizning holda har  $45^0$ ) OA radiusli aylanada  $A_1, A_2, \dots, A_8$  nuqtalar belgilaymiz shunga yarasha B va D bir nomli nuqtalar topiladi. Natijada krivoshipning 12 holati bo'yicha boshqa zvenolarning holatlari topiladi;

8) 2,3 va 4-zvenolarda og'irlik markazlari belgilanib, og'irlik markazi trayektoriyalari chiziladi.

### Mexanizmning tezliklar rejasini qurish

Tezliklar rejasini qurish quyidagi qoidalarga amal qilgan holda bajariladi:

- tezlik rejasini tezlik vektor tenglama asosida quriladi;
- tezlik vektor tenglama zvenoning oxirgi nuqtasi (zvenolarni bog'lab turgan kinematik juft) uchun tuziladi;
- tezlik vektor tenglamalar soni kinematik juft bog'lab turgan zvenolar soniga teng bo'ladi.

Krivoshipning birinchi holatiga tezlik rejasini qurish uchun, avvalam bor, krivoshipga tegishli "A" nuqtaning tezlik vektor tenglamasi yoziladi:

$$\begin{aligned}\vec{v}_A &= \vec{v}_O + \vec{v}_{AO} \\ v_O &= 0;\end{aligned}\tag{1.1}$$

$$v_{AO} = \omega_1 \cdot l_{OA}; \quad \omega_1 = \frac{\pi n_1}{30} = \frac{3,14 \cdot 70}{30} = 7,326 \frac{1}{s}$$

$$v_{AO} = \omega_1 \cdot l_{OA} = 7,326 \cdot 0,12 = 0,879 \frac{m}{s}$$

Bu tenglamada  $\vec{v}_A$  - A nuqtaning absolut tezlik vektori,  $\vec{v}_O$  - A nuqtaning aylanish markazi O nuqtaning absolut tezlik vektori,  $\vec{v}_{AO}$  - A nuqtaning aylanish markazi O nuqtaga nisbatan nisbiy tezlik vektori.

$\vec{v}_{OA}$  vektori «A» nuqtasidan OA krivoshipning birinchi holatiga perpendikular yo'nalgan.  $\vec{v}_{OA} \perp \overline{OA}$

$\vec{v}_{OA} = 40mm$  qabul qilinadi. Bunda tezlik masshtabi quyidagiga teng bo'ladi:

$$\mu_v = \frac{v_{OA}}{\vec{v}_{OA}} = \frac{v_{OA}}{PA} = \frac{0,879}{40} = 0,021975 \frac{m}{smm}\tag{1.2}$$

"B" kinematik jufti 2,3 va 4 zvenolarni bog'lab turadi, lekin 2 va 3 zvenolarning oxirgi nuqtasi bo'lgani uchun, uning tezlik vektor tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned}\vec{v}_B &= \vec{v}_A + \vec{v}_{BA} \\ \vec{v}_B &= \vec{v}_C + \vec{v}_{BC}\end{aligned}\tag{1.3}$$

$\vec{v}_{BA}$  vektori chizmadagi shatun  $\overline{AB}$  perpendikulyar yo'naladi;  $\vec{v}_{BA} \perp \overline{AB}$

$\vec{v}_{BC}$  vektori BC zvenoning birinchi holatiga perpendikulyar yo'nalgan;

$\vec{v}_{BC} \perp \overline{BC}$

“D” kinematik jufti 4 va 5- zvenolarni bog’laydi, 4-zvenoning oxirgi nuqtasi. 5-zvenoning yagona nuqtasi bo’lgani uchun **D** nuqtaning vektor tenglamasi quyidagicha bo’ladi:

$$\begin{aligned}\vec{v}_D &= \vec{v}_B + \vec{v}_{DB} \\ \vec{v}_D &= \vec{v}_{D(X)} + \vec{v}_{D(X-X)}\end{aligned}\quad (1.4)$$

Ushbu tenglamalar sxemasidagi ikkinchi tenglamada  $\overline{v_{D(X)}}$  -polzun yurish yo’lidan o’tgan “X” o’qiga D nuqta vektorining proyeksiyasi. “X” o’qi **D** nuqtadan o’tgani uchun, uning proyeksiyasi nolga teng;  $\vec{v}_{D(X)} = 0$ .

$\overline{v_{D(X-X)}}$  - D nuqtaning X-X o’qi bo’yicha harakat tezlik vektori.

Tezlik rejasining birinchi holatini qurib, unda zvenolarning og’irlik markazlari holatlari quyidagi proporsiyadan aniqlanadi:

$$\frac{s_2 \bar{a}}{\bar{ab}} = \frac{S\bar{A}}{A\bar{B}}; \quad s_2 \bar{a} = \frac{S\bar{A}}{A\bar{B}} \cdot ab [mm]$$

$$s_3 \bar{b} = \frac{1}{2} p\bar{b}$$

$$s_4 \bar{d} = \frac{S\bar{D}}{B\bar{D}} \cdot \bar{db}$$

$v_B$ ,  $v_S$  va  $v_D$  - absolut tezliklari,  $v_{BA}$ ,  $v_{BC}$  va  $v_{DB}$  - nisbiy tezliklar hamda 2,3 va 4-zvenolarning burchak tezliklari rejadan quyidagicha aniqlanadi:

$$v_B = \bar{pb} \cdot \mu_v = 30,7 \cdot 0,021975 = 0,676 \left[ \frac{m}{s} \right];$$

$$v_{s_2} = \bar{ps}_2 \cdot \mu_v = 24,6 \cdot 0,021975 = 0,616 \text{ m / s}$$

$$v_{BA} = \bar{ab} \cdot \mu_v = 44,2 \cdot 0,021975 = 0,972 \text{ m / s};$$

$$\omega_2 = \frac{v_{BA}}{l_{BA}} = \frac{0,972}{0,46} = 2,11 / s$$

$$v_{BC} = v_B = 0,676 \text{ m / s}; \quad \omega_3 = \frac{v_{BC}}{l_{BC}} = \frac{0,676}{0,39} = 1,731 / s \quad (1.5)$$

$$v_D = \bar{pd} \cdot \mu_v = 19 \cdot 0,021975 = 0,418 \text{ m / s}$$

$$v_{DB} = \overline{db} \cdot \mu_v = 21 \cdot 0,021975 = 0,46 \text{ m/s};$$

$$\omega_4 = \frac{v_{DB}}{l_{DB}} = \frac{0,46}{1,5} = 0,306 \text{ 1/s};$$

Qolgan holatlardagi tezlik qiymatlari aniqlanib, jadval to'ldiriladi.

1-jadval

Zveno nuqtalarining chiziqli va zenolarning burchak tezliklari jadvali

	1	2	3	4	4	5	6	7	8
$V_A$	0,879	0,879	0,879	0,879	0,879	0,879	0,879	0,879	0,879
$V_B$	0,676	0,888	0,976	0,705	0	0,619	1,88	0,802	0
$V_D$	0,418	0,698	0,912	0,705	0	0,628	1,637	0,486	0
$V_{S2}$	0,614	0,798	0,926	0,785	0,439	0,383	1,207	0,848	0,438
$V_{S3}$	0,338	0,444	0,488	0,352	0	0,309	0,818	0,401	0
$V_{S4}$	0,513	0,757	0,949	0,705	0	0,623	1,73	0,612	0
$V_{BA}$	0,972	0,763	0,35	0,214	0,879	1,33	1,67	0,11	0,879
$V_{DB}$	0,46	0,436	0,255	0	0	0,038	0,608	0,523	0
$\omega_1$	7,326	7,326	7,326	7,326	7,326	7,326	7,326	7,326	7,326
$\omega_2$	2,11	1,658	0,76	0,465	1,91	2,89	3,63	0,237	1,91
$\omega_3$	1,73	2,276	2,5	1,807	0	1,587	4,82	2,058	0
$\omega_4$	0,306	0,29	0,17	0	0	0,025	0,405	0,348	0

### Tezlanish rejalarini qurish

Tezlanish rejalarini tezlik rejalarini qurilib, tezlik qiymatlari aniqlangandan so'ng bajariladi. Tezlanish rejalarini qurishda yuqorida ko'rsatilgan tezlik rejalarini qurishdagi qoidalarga amal qilinadi.

Krivoshipga tegishli "A" nuqtasining tezlanish vektor tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{a}_A = \vec{a}_o + \vec{a}_{AO}^n + \vec{a}_{AO}^t$$

$$a_{AO}^n = \omega_1^2 \cdot l_{OA} = 7,326^2 \cdot 0,12 = 6,44 \frac{m}{s^2}$$

$$\vec{a}_{AO}^n \parallel \overline{OA}$$

$$a_{AO}^t = \varepsilon_1 \cdot l_{OA} = \frac{d\omega_1}{dt} \cdot l_{OA}; \quad \omega_1 = const; \quad \varepsilon_1 = 0; \quad a_{AO}^t = 0 \quad (1.6)$$

$$a_A = a_{AO}^n = 6,44 \frac{m}{s^2}$$

Bunda  $\vec{a}_A$  - A nuqtaning absolut tezlanish vektori;  $\vec{a}_O$  - aylanish markazi

O ning absolut tezlanish vektori, qo'zg'almas bo'lgani sababli  $a_o = 0$ ;  $\vec{a}_{AO}^n$  - A nuqtaning aylanish markaziga nisbatan normal tezlanish tashkil etuvchi vektori;  $\vec{a}_{AO}^t$  - A nuqtaning aylanish markaziga nisbatan tangensial tezlanish tashkil etuvchi vektori.

Tezlanish masshtabi:

$$\mu_a = \frac{a_A}{\vec{a}_A} = \frac{a_A}{pa} = \frac{6,44}{40} = 0,161 \frac{m}{s^2 mm} \quad (1.7)$$

“B” nuqtaning tezlanish vektor tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{a}_B = \vec{a}_A + \vec{a}_{BA}^n + \vec{a}_{BA}^t$$

$$\vec{a}_{BC} = \vec{a}_C + \vec{a}_{BC}^n + \vec{a}_{BC}^t$$

$$a_{BA}^n = \omega_2 \cdot l_{BA} = 2,11^2 \cdot 0,46 = 2,048 \frac{m}{s^2};$$

$\omega_2$  qiymati 1-jadvaldan olingan.

$\vec{a}_{BA}^n$  II  $\overline{BA}$  va "A" nuqtasi tomon yo'nalgan;

$$\vec{a}_{BA}^n = \overline{na} = \frac{a_{BA}^n}{\mu_a} [mm] \quad (1.8)$$

$\vec{a}_{BA}^t \perp \overline{BA}$ ;

$$a_{BC}^n = \omega_3^2 \cdot l_{BC} = 1,73^2 \cdot 0,39 = 1,167 \frac{m}{s^2}$$

$\omega_3$  ning qiymati 1- jadvaldan olingan.

$$\vec{a}_{BC}^n = \overline{fp} = \frac{a_{BC}^n}{\mu_a}; \vec{a}_{BC}^n \text{ II } \overline{BC} \text{ va "C" nuqtasi tomon yo'nalgan}$$

Polzun va shatunga tegishli “D” nuqtaning tezlanish vektor tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$\vec{a}_D = \vec{a}_B + \vec{a}_{DB}^n + \vec{a}_{DB}^t \quad (1.9)$$

$$\vec{a}_D = \vec{a}_{D(X)} + \vec{a}_{D(X-X)}$$

$$a_{DB}^n = \omega_4^2 \cdot l_{DB} = 0,306^2 \cdot 1,5 = 0,14 \frac{m}{s^2}$$

$\omega_4$  ning qiymati 1- jadvaldan olingan.

$$\vec{a}_{DB}^n = \frac{a_{DB}^n}{\mu_a} = 0,87 mm;$$

$\vec{a}_{DB}^n$  II  $\overline{DB}$  va "B" nuqtasi tomon yo'nalgan;

$$\vec{a}_{DB}^t \perp \overline{DB}$$

$$a_{D(X)} = 0; \quad \vec{a}_{D(X-X)} \text{ II } (X-X) \text{ o'qiga}$$

Zvenolarning og'irlik markazlari holatlari tezlik rejasi kabi aniqlanadi.

"B" va "D" nuqtalarining absolut va nisbiy tezlanishlari rejadan quyidagicha aniqlanadi:

$$a_B = \overline{pb} \cdot \mu_a = 26,08 \frac{m}{s^2}$$

$\overline{pb}$  vektor uzunligi 1.6 - rasmdan tezlik rejasidan o'lchab olingan.

$$a_{BA}^t = \overline{nb} \cdot \mu_a = 6,2 \cdot 0,161 = 1,0 m/s^2;$$

$$\varepsilon_2 = \frac{a_{BA}^t}{l_{BA}} = \frac{1,0}{0,46} = 2,171/s^2;$$

$$a_{BC}^t = \overline{fb} \cdot \mu_a = 25 \cdot 0,616 = 4,04 m/s^2; \quad \varepsilon_3 = \frac{a_{BC}^t}{l_{BC}} = \frac{4,04}{0,39} = 10,31/s^2$$

$$a_D = \overline{pd} \cdot \mu_a = 21,1 \cdot 0,161 = 3,4 m/s^2; \quad a_{DB}^t = \overline{qb} \cdot \mu_a = 10,7 \cdot 0,161 = 1,73 m/s^2;$$

$$\varepsilon_4 = \frac{a_{BD}^t}{l_{BD}} = \frac{1,73}{1,5} = 1,151/s^2;$$

$$a_{s_2} = \overline{ps_2} \cdot \mu_a; \quad a_{s_3} = \overline{ps_3} \cdot \mu_a; \quad a_{s_4} = \overline{ps_4} \cdot \mu_a$$

$\overline{nb}$ ,  $\overline{fb}$ ,  $\overline{pd}$  va  $\overline{ps_2}$  vektor uzunliklari 1.6 - rasmdan tezlik rejasidan olingan.

Qolgan vaziyatlardagi tezlanishlar qiymatlari 2-jadvalda ko'rsatilgan.

2-jadval

Zveno nuqtalarining chiziqli va zenolarning burchak tezlanishlari

	1	2	3	4	5	6	7	8
$a_{AO}^n$	6,44	6,44	6,44	6,44	6,44	6,44	6,44	6,44
$a_B$	4,2	3,31	2,39	6,71	17,69	9,68	9,84	5,78
$a_D$	3,4	3,26	0,88	6,26	17,67	7,9	7,53	3,38
$a_{S_2}$	5,28	4,86	4,27	5,4	11,72	3,3	5,72	5,83
$a_{S_3}$	2,1	1,65	1,19	3,35	8,84	4,84	4,92	2,88
$a_{S_4}$	3,74	3,27	1,31	6,46	17,68	7,92	8,4	4,26
$a_{BA}^n$	2,04	1,26	0,265	0,1	3,84	6,06	0,026	1,68
$a_{BA}^t$	1,0	2,85	4,65	7,64	12,0	13,75	12,2	3,4
$a_{BC}^n$	1,16	2,02	2,43	1,27	0,982	9,06	1,65	0
$a_{BC}^t$	4,04	2,64	0,31	6,63	17,67	3,35	9,82	5,88
$a_{DB}^n$	0,14	0,126	0,043	0	0,0009	0,246	0,18	0
$a_{DB}^t$	1,73	1,68	2,5	1,3	0,11	0,03	5,0	4,17
$\varepsilon_2$	2,17	6,19	9,67	16,6	26,0	29,89	26,52	7,39
$\varepsilon_3$	10,3	6,77	0,79	17	45,3	8,59	25,18	15
$\varepsilon_4$	1,15	1,12	1,67	0,86	0,07	0,07	3,34	2,78

### Mexanizmning kinetostatik tahlili.

Bunday tahlilda kinematik juftlardagi reaksiya kuchlarini, zvenolarning inersiya kuchlarini hisobga olgan holda hamda muvozanatlovchi kuch va moment aniqlanadi.

Kuchga hisoblash uchun quyidagilar berilgan:

- zvenolarning massalari:

$$m_2 = 21 \text{ kg}; m_3 = 25 \text{ kg}; m_4 = 85 \text{ kg}; m_5 = 500 \text{ kg};$$

- inersiya momentlari:

$$J_{O_1} = J_{S_3} = 1,1 \text{ kgm}^2; J_{S_2} = 0,5 \text{ kgm}^2; J_{S_4} = 36 \text{ kgm}^2;$$



$$J_{dv} = 0,03 \text{ kgm}^2;$$

- qarshilik kuchi:

$$P_{chap} = 165 \text{ kN}$$

$$P_{o'ng} = 4,60 \text{ kN};$$

- kuchga hisoblash uchun krivoship burchagi  $\varphi = 45^\circ$

Kinematik juftlardagi reaksiya kuchlari har bir Assur guruhi uchun alohida aniqlanadi. Assur guruhlariga bo'lishni oxirgi, ijrochi mexanizmdan boshlanadi. II Assur guruhi II(4,5) chizilib (krivoshipning 1- holati uchun), mos nuqtalarga ta'sir etayotgan kuch vektorlari qo'yiladi.

Zvenolarning og'irlik markazlariga qo'yilgan inersiya kuchlari va ularning

$$P_{i4} = -m_4 \cdot a_{s4} = 85 \cdot 3,27 = 271,95 \text{ N}$$

momentlari quyidagicha aniqlanadi:  $M_{i4} = -\varepsilon_4 \cdot J_{s4} = 1,12 \cdot 36 = 40,32 \text{ Nm}$

$$P_{i5} = -m_5 \cdot a_d = 500 \cdot 3,26 = 1630 \text{ N}$$

4-zvenoning «B» nuqtasiga 2 va 3-zvenolardan ta'sir etayotgan reaksiya kuchini  $R_{(23)4}$  normal  $R_{(23)4}^n$  va tangensial  $R_{(23)4}^t$  ga taqsimlanadi.  $R_{(23)4}^t$  nianiqlash uchun barcha kuchlardan «D» nuqtasiga nisbatan muvozanat moment tenglamasi yoziladi:

$$\sum M_D(P) = R_{(23)4}^t \cdot BD + G_2 \cdot h_{G2} - P_{i4} \cdot h_{pi4} + M_{i4} / \mu_l = 0$$

$$R_{(23)4}^t = \frac{P_{i4} \cdot h_{pi4} - M_{i4} / \mu_l - G_2 \cdot h_{G2}}{BD} = \frac{274,95 \cdot 14,15 - 40,32 / 0,012 - 85 \cdot 9,81 \cdot 83,95}{125} = -559,48 \text{ N}$$

$\vec{R}_{(23)4}^t$  haqiqiy vektor yo'nalishi qarama-qarshi tomonga yo'nalgan.

$R_{(23)4}^n$  va  $R_{05}$  reaksiya kuchlari kuch rejasidan aniqlanadi.

Kuch rejasi quyidagi vektor muvozanat tenglama asosida quriladi:

$$\vec{R}_{(23)4}^n + \vec{R}_{(23)4}^t + \vec{G}_4 + \vec{P}_{i4} + \vec{P}_\kappa + \vec{G}_5 + \vec{P}_{i5} + \vec{R}_{05} = 0$$

Kuch rejasini qurish uchun, uning masshtabi tanlanadi va tenglamada ko'rsatilgan barcha ma'lum kuchlarning vektor uzunliklari aniqlanadi.

$$R_{t(23)4} = 559,48 \text{ N};$$

$$G_4 = 833,85 \text{ N}$$

$$P_{n4} = 271,95 \text{ N}$$

$$P_K = 4600 \text{ N}$$

$$\mu_p = \frac{P_{\max}}{P_{\max}} = \frac{G_5}{G_5} = \frac{4905}{100} = 49,05 \frac{N}{mm}$$

$$G_5 = 4905 \text{ N}$$

$$P_{u5} = 1630 \text{ N}$$

Ma'lum kuchlarning vektor uzunliklarini aniqlash uchun, ularning haqiqiy kattaliklarini masshtabga bo'lish zarur. Shunga quyidagi qiymatlar kelib chiqadi:

$$\vec{R}_{(23)4}^t = \frac{R_{(23)4}^t}{\mu_p} = \frac{559,48}{49,05} = 11,04 \text{ mm}$$

$$\vec{G}_4 = 17 \text{ mm}; \quad \vec{P}_{u4} = 5,54 \text{ mm}; \quad \vec{P}_K = 93,78 \text{ mm}; \quad \vec{P}_{u5} = 32,23 \text{ mm}$$

Kuch rejasidan no'malum kuchlar aniqlanadi (1.6-rasm):

$$R_{(23)4}^n = \vec{R}_{(23)4}^n \cdot \mu_p = 66,41 \cdot 49,05 = 3257,4 \text{ N}$$

$$R_{(23)4} = \vec{R}_{(23)4} \cdot \mu_p = 67,3 \cdot 49,05 = 3301,06 \text{ N}$$

$$R_{05} = 5927,69 \text{ N}$$

4 va 5 zvenolardagi reaksiya kuchini aniqlash uchun 4 yoki 5 - zvenodagi barcha kuchlardan vektor muvozanat tenglamasi yoziladi va shu tenglama asosida kuch rejasi quriladi.

4- zvenodan:

$$\vec{R}_{(23)4} + \vec{G}_4 + \vec{P}_{i4} + \vec{R}_{54} = 0$$

$$R_{(23)4} = 3301,06 \text{ N}; \quad G_4 = 833,85 \text{ N}; \quad P_{i4} = 271,95 \text{ N};$$

$$\mu_p = \frac{P_{\max}}{P_{\max}} = \frac{R_{(23)4}}{R_{(23)4}} = \frac{3301,06}{50} = 66,02 \frac{N}{mm}$$

Kuchlarning vektor uzunliklari quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{G}_4 = \frac{G_4}{\mu_p} = 12,63 \text{ mm}; \quad \vec{P}_{u4} = 4,12 \text{ mm}$$

To'rtinchi va beshinchi zvenolar orasidagi kinematik juftda reaksiya kuchi quyidagiga teng bo'ladi:

$$R_{54} = \vec{R}_{54} \cdot \mu_p = 52,3 \cdot 66,02 = 3452,84 \text{ N}$$

## **2 va 3 - zvenolardagi no'malum kuchlarni aniqlash**

2 va 3 zvenolardan tashkil topgan II sinf Assur guruhi chizilib, mos nuqtalarga yo'nalishi ma'lum kuchlarning vektor yo'nalishlari qo'yiladi. Bunda «B» nuqtada  $\vec{R}_{4(23)} = -\vec{R}_{(23)4}$ , lekin qiymatlari teng bo'ladi. Zvenolarning inersiya kuchlari va ularning inersiya momentlari aniqlanadi.

$$P_{i2} = -m_2 \cdot a_{s2} = 21 \cdot 4,86 = 82,62 \text{ N}$$

$$M_{i2} = -\varepsilon_2 \cdot J_{s2} = 6,19 \cdot 0,5 = 3,095 \text{ Nm}$$

$$P_{i3} = -m_3 \cdot a_{s3} = 25 \cdot 1,65 = 34,65 \text{ N}$$

$$M_{i3} = -\varepsilon_3 \cdot J_{s3} = 6,77 \cdot 1,2 = 8,124 \text{ Nm}$$

“A” nuqtasidagi  $R'_{12}$  reaksiya kuchini aniqlash uchun, 2-zvenodagi barcha kuchlardan “B” nuqtasiga nisbatan moment muvozanat tenglamasi yoziladi:

$$\sum M_B(P) = -R'_{12} \cdot AB + P_{i2} \cdot h_{pi2} + G_2 \cdot h_{G2} + \frac{M_{i2}}{\mu_l} = 0$$

$$R'_{12} = \frac{P_{i2} \cdot h_{pi2} + G_2 \cdot h_{G2} + \frac{M_{i2}}{\mu_l}}{AB} = \frac{82,62 \cdot 23,95 + 166,89 \cdot 15,14 + \frac{3,095}{0,012}}{38,33} = 124,22 \text{ N}$$

“C” nuqtasidagi  $R'_{03}$  reaksiya kuchini aniqlash uchun, 3-zvenodagi barcha kuchlardan “B” nuqtasiga nisbatan moment muvozanat tenglamasi yoziladi.

$$\sum M_B(P) = R'_{03} \cdot CB - P_{i3} \cdot h_{pi3} - G_3 \cdot h_{G3} + \frac{M_{i3}}{\mu_l}$$

$$R'_{03} = \frac{P_{i3} \cdot h_{pi3} + G_3 \cdot h_{G3} - \frac{M_{i3}}{\mu_l}}{CB} = \frac{34,65 \cdot 18,04 + 206,81 \cdot 11,11 - 677}{32,5} = 69,09 \text{ N}$$

Boshqa kuchlar rejadan aniqlanadi.

Vektor muvozanat tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{R}'_{12} + \vec{R}^t_{12} + \vec{G}_2 + \vec{P}_{i2} + \vec{R}_{4(23)} + \vec{G}_3 + \vec{P}_{i3} + \vec{R}'_{03} + \vec{R}^n_{03} = 0$$

Ma'lum kuchlarnig eng katta qiymatidan kuch masshtabi tanlanadi:

$$\mu_p = \frac{P_{\max}}{\bar{P}_{\max}} = \frac{R_{4(23)}}{\bar{R}_{4(23)}} = \frac{3301,06}{100} = 33,01 \frac{\text{N}}{\text{mm}}$$

Ma'lum kuchlarning vektor uzunliklari aniqlanadi.

$$\vec{R}_{12}^t = \frac{R_{12}^t}{\mu_p} = \frac{124,22}{33,01} = 3,76 \text{ mm}; \quad \vec{G}_2 = 5,05 \text{ mm}; \quad \vec{P}_{u2} = 2,5 \text{ mm};$$

$$\vec{G}_3 = 6,26 \text{ mm}; \quad \vec{P}_{u3} = 1 \text{ mm}; \quad \vec{R}_{03}^t = 2,09 \text{ mm};$$

Rejadan vektor uzunliklari bo'yicha noma'lum bo'lgan kuchlarning haqiqiy qiymatlari aniqlanadi:

$$R_{12}^n = R_{12}^t \cdot \mu_p = 83,05 \cdot 33,01 = 2741,48 \text{ N}$$

$$R_{12} = 2748,41 \text{ N}; \quad R_{03}^n = 3255,1 \text{ N}$$

Mexanizm zvenolaridagi barcha kuchlardan bosh zvenoga keltirilgan muvozanat kuchi aniqlanadi  $P_{\text{MUV}}$ .

Krivoship o'z holatida chizilib,  $\vec{R}_{21}$  va  $\vec{R}_{my6}$  kuch vektorlari "A" nuqtasiga o'z yo'nalishida qo'yiladi. Bunda  $\vec{R}_{21} = -\vec{R}_{12}$ ;  $\vec{P}_{my6} \perp \vec{OA}$

Krivoship markazi «O» nisbatan muvozanat tenglamasidan  $P_{\text{MUV}}$  aniqlanadi.

$$\sum M_P(O) = P_{\text{muv}} \cdot \vec{OA} + R_{(23)1} \cdot h_{R_{(23)1}} = 0$$

$$P_{\text{muv}} = -\frac{h_{R_{21}}}{OA} \cdot R_{21} = -\frac{12,14}{13,65} \cdot 2748,41 = -2444,37 \text{ N}$$

$R_{OA}$  reaksiya kuchi rejadan aniqlanadi. Vektor muvozanat tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{P}_{\text{muv}} + \vec{R}_{21} + \vec{R}_{01} = 0$$

$$P_{\text{muv}} = 2444,37 \text{ N};$$

$$R_{21} = 2748,41 \text{ N}$$

$$\mu_p = \frac{R_{21}}{\vec{R}_{21}} = \frac{2748,41}{50} = 54,96 \frac{\text{N}}{\text{mm}}$$

$$\vec{P}_{\text{muv}} = \frac{P_{\text{muv}}}{\mu_l} = \frac{2444,37}{54,96} = 44,47 \text{ mm}$$

### ***Muvozanatlovchi kuchni N.E.Jukovskiy qattiq richagi yordamida aniqlash***


Buning uchun tezlik rejasini  $\omega_1$  yo'nalishida  $90^\circ$  burib, tashqi va inersiya kuchlarining vektor yo'nalishlarini mos nuqtalarga qo'yib, qutbga nisbatan moment muvozanat tenglamasi yoziladi va shu tenglamada  $P'_{\text{MUV}}$  topiladi.

$$\sum M_p(P) = P'_{muv} \cdot pa - G_2 \cdot h_{G2} - P_{i2} \cdot h_{pi2} + M_{i2} / \mu_1 - G_3 \cdot h_{G3} - P_{i3} \cdot h_{pi3} - M_{i3} / \mu_1 - G_4 \cdot h_{G4} - P_{i4} \cdot h_{pi4} + M_{i4} / \mu_1 + pd(P_k - P_{i5}) = 0$$

$$P'_{muv} = \frac{G_2 \cdot h_{G2} + P_{i2} \cdot h_{pi2} - M_{i2} / \mu_1 + G_3 \cdot h_{G3} + P_{i3} \cdot h_{pi3} + M_{i3} / \mu_1 + G_4 \cdot h_{G4} + P_{i4} \cdot h_{pi4} - M_{i4} / \mu_1 - pd(P_k - P_{i5})}{pa} = 2407,95 \text{ N}$$

Nisbiy hatolik  $\Delta = \frac{P_{muv} - P'_{muv}}{P_{muv}} \cdot 100\% = \frac{2444,37 - 2407,95}{2444,37} \cdot 100\% = 1,48\%$

Kinetostatik analiz uchun barcha qurilmalar 1.6- rasmda keltirilgan.



**Evolventa profilli tishli ilashmani va planetar  
reduktorni loyihalash.**

Evolventa profilli tishli ilashmani loyihalash

Berilgan:

$$z_a = 17 \qquad n_{\text{d}8} = 1350 \text{ min}^{-1}$$

$$z_b = 19 \qquad n_1 = 70 \text{ min}^{-1}$$

$$m = 5 \text{ mm} \qquad m_{pl} = 5 \text{ mm}$$

Tishli g'ildiraklarning geometrik parametrlarini aniqlaymiz.  
Bo'luvchi aylanalari radiuslari:

$$r_a = 0,5 \cdot m \cdot z_4 = 0,5 \cdot 5 \cdot 17 = 42,5 \text{ mm}$$

$$r_b = 0,5 \cdot m \cdot z_5 = 0,5 \cdot 5 \cdot 19 = 47,5 \text{ mm}$$

Asosiy aylanalarning radiuslari:

$$r_{b4} = r_4 \cdot \cos \alpha = 42,5 \cdot \cos 20^\circ = 39,95 \text{ mm}$$

$$r_{b5} = r_5 \cdot \cos \alpha = 47,5 \cdot \cos 20^\circ = 44,63 \text{ mm}$$

G'ildirak tishlarining balandligi:

$$h_4 = h_5 = m \cdot (2 \cdot h_a^* + c_0) = 5 \cdot (2 \cdot 1 + 0,25) = 11,25 \text{ mm}$$

Ilashmaning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha qadami:

$$p = \pi \cdot m = 3,14 \cdot 5 = 15,7 \text{ mm}$$

Tishning boshlang'ich aylana yoyi bo'yicha qalinligi

$$S_4 = S_5 = 0,5p = 0,5 \cdot 15,7 = 7,85 \text{ mm}$$

G'ildirak tishlarining botiqligi aylanasi(ichki aylana) radiuslari:

$$r_{fa} = r_4 - m \cdot (1 + c_0) = 42,5 - 5 \cdot (1 + 0,25) = 36,25 \text{ mm}$$

$$r_{fb} = r_5 - m \cdot (1 + c_0) = 47,5 - 5 \cdot (1 + 0,25) = 41,25 \text{ mm}$$

G'ildirak tishlarining tashqi aylanasi radiuslari:

$$r_{aa} = r_{f4} + h_4 = 36,25 + 11,25 = 47,5 \text{ mm}$$

$$r_{ab} = r_{f5} + h_5 = 41,25 + 11,25 = 52,5 \text{ mm}$$

Galtelning yumaloqlanish radiusi

$$r_p = 0,4m = 0,4 \cdot 5 = 2 \text{ mm}$$

O'qlararo masofa

$$a_w = 0,5m(z_a + z_b) = 0,5 \cdot 5 \cdot (17 + 19) = 90 \text{ mm}$$

Qoplanish koeffitsienti quidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon = \frac{\sqrt{r_{a1}^2 - r_{b1}^2} + \sqrt{r_{a2}^2 - r_{b2}^2} - a_w \cdot \sin \alpha_w}{\pi \cdot m \cdot \cos \alpha}$$

$$\varepsilon = \frac{\sqrt{47,5^2 - 39,95^2} + \sqrt{52,5^2 - 44,63^2} - 90 \cdot 0,342}{3,14 \cdot 5 \cdot 0,94} = 1,53$$

Chizmaning uzunlik masshtabi  $\mu_l$  ni tanlaymiz. Bunda tishning chizmadagi balandligi  $h > 50 \text{ mm}$  bo'lishi kerak.

$$\mu_l = \frac{h_4}{h} = \frac{11,25}{60} = 0,1875 \frac{\text{mm}}{\text{mm}}$$

G'ildiraklarning  $O_4$  va  $O_5$  markazlari oralig'ini topamiz:

$$\overline{a_w} = \frac{a_w}{\mu_l} = \frac{90}{0.1875} = 480 \text{ mm}$$

$O_4$  va  $O_5$  markazlar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi, bu markazlardan

$$\overline{r_a} = \frac{r_a}{\mu_l} = \frac{42.5}{0.1875} = 226.66 \text{ mm}$$

$$\overline{r_b} = \frac{r_b}{\mu_l} = \frac{47.5}{0.1875} = 253.33 \text{ mm}$$

radiuslar bilan bo'luvchi aylanalar radiuslari chiziladi.

Ikki aylananingurinish nuqtasi  $P$  dan bo'lish aylanalariga urinma chiziq  $\tau$ - $\tau$  o'tkaziladi (16.2 - rasm). Urinma chiziq  $\tau$ - $\tau$ , markazlar  $O_4$  va  $O_5$  ni tutashtiruvchi chiziqqa tik bo'ladi.

$O_4$  va  $O_5$  markazlardan

$$\overline{r_{ba}} = \frac{r_{ba}}{\mu_l} = \frac{39.95}{0.1875} = 213.4 \text{ mm}$$

$$\overline{r_{bb}} = \frac{r_{bb}}{\mu_l} = \frac{44.63}{0.1875} = 238.02 \text{ mm}$$

Radiuslar bilan asosiy aylanalari chiziladi.

